

MUHAMMADNIYOZ NISHOTIY “HUSNU DIL” DOSTONINING BADIY XUSUSIYATLARI VA G‘OYAVIY MOHIYATI

To‘xtasinova Baxtigul Doniyor qizi

Farg‘ona davlat universiteti 3-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Muhammadniyoz Nishotiyning “Husnu Dil” dostoni tahlil qilinib, undagi obrazlar tizimi, g‘oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlari yoritiladi. Dostonning ramziy qahramonlari orqali shoir insonning ma’naviy kamoloti, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash, aql va muhabbatning uyg‘unligi haqidagi qarashlarni ifodalagan. Tadqiqotda asarning syujeti, obrazlarning funksiyasi, shuningdek, shoirning ma’rifiy g‘oyalari tahliliy yondashuv asosida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Muhammadniyoz Nishotiy, Husnu Dil, dostonda obrazlar tizimi, ramzlar, ezgulik va yovuzlik, ma’naviy komillik, Ishq, Aql, ma’rifiy g‘oyalar, mumtoz adabiyot, ma’naviy tarbiya.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется эпическая поэма «Хусну Дил» Мухаммадниева Нишоти, выделяя её образную систему, идейное содержание и художественные особенности. Через символических героев эпоса поэт выражает свои взгляды на духовное совершенство человека, борьбу добра и зла, гармонию разума и любви. Исследование раскрывает сюжет произведения, функцию образов, а также просветительские идеи поэта на основе аналитического подхода.

Ключевые слова: Мухаммадниева Нишоти, «Хусну Дил», образная система эпоса, символы, добро и зло, духовное совершенство, ЛЮБОВЬ, Разум, просветительские идеи, классическая литература, духовное воспитание.

ANNOTATION

This article analyzes the epic poem "Husnu Dil" by Muhammadniez Nishoti, highlighting its system of images, ideological content and artistic features. Through the symbolic heroes of the epic, the poet expressed his views on the spiritual perfection of man, the struggle between goodness and evil, and the harmony of reason and love. The study reveals the plot of the work, the function of the images, as well as the poet's enlightening ideas based on an analytical approach.

Keywords: Muhammadniez Nishoti, Husnu Dil, the system of images in the epic, symbols, goodness and evil, spiritual perfection, LOVE, Mind, enlightening ideas, classical literature, spiritual education.

Kirish.

XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida yaratilgan “Husnu Dil” dostoni o‘zbek ma’rifiy-adabiy tafakkurining yetuk namunalaridan biri bo‘lib, unda insonning ma’naviy kamoloti, jamiyatdagi ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash badiiy talqin etilgan. Muhammadniyoz Nishotiy ushbu dostonida timsollar tizimi orqali aql, muhabbat, vafodorlik, farosat, saxovat kabi fazilatlarni targ‘ib etadi. Dostonning markazida Husn va Dilning visolga erishish yo‘lidagi kurashi yotadi.

Nishotiy dostonida inson qalbining poklanishi va komillikka erishishi yo‘lini ramziy obrazlar orqali yoritadi. Doston boshida Fuvodning orzusi ijobat bo‘lib, u o‘zining sevikli Husnga yetadi, ularning atrofida esa Aqllar, Himmat, Vafobonu, Sabro kabi ezgulik timsollari mujassam bo‘ladi. Ularning barchasi Ishq boshchiligida jamiyatning uyg‘unlik va farovonlik yo‘liga yetishini ko‘zlaydi.

Shoir aynan shu nuqtada ishqni insonni yuksaltiruvchi kuch sifatida talqin etadi. Dostonning bir qismida shoir quyidagicha aytadi:

“Suhbat ila ul el ulub muhtaram,
Bo‘ldi farog‘atda nuquzniki qalam...”

Ushbu baytlar Ishq va Dilning uyg'unligi, insonning ruhiy poklanishi orqali jamiyatning obod bo'lishi g'oyasini ifodalaydi.

Dostondagi obrazlar tizimi.

Dostonda quyidagi obrazlar ezgulikning ramzi sifatida keltiriladi:

Aql – adolat, farosat, dono hukmdorlik belgisi.

Fuvod – halollik va fidoyilik timsoli.

Husn – go'zallik, ruhiy komillik ramzi.

Himmat, Vafobonu, Sabro, Komat, Haël – insonning oliy fazilatlari mujassami.

Nishotiy bu obrazlar orqali jamiyatdagi tinchlik, osoyishtalik, farovonlik g'oyalarini tarannum etadi.

Ikkinchi guruh obrazlar – insonni halokatga boshlovchi illatlar timsoli:

Vahm, Raqib, Furuq, Foqir, Shayx Zark, Shohi Fisod.

Ular zulmat kuchlari sifatida gavdalanib, komillikka yetishga to'sqinlik qiladi. Shoir bu obrazlar orqali jamiyatni yomonliklardan forig' qilish zarurligini ko'rsatadi.

Aql obrazining alohida o'rni. Nishotiy Aqlni yunon podshohi – adolatli, dono, hikmatli hukmdor sifatida tasvirlaydi. U o'z adolati bilan “mulk ma'mur”, “xalq masrur” bo'lishiga sabab bo'ladi:

“Ilm ila hikmat aro Luqmon edi,

Faqh ila fikrat aro burhon edi...”

Biroq Aqlning o'zi ham Vahmning aldoviga uchib, adashishi mumkinligi ko'rsatiladi. Bu – shoirning chuqur falsafiy qarashidir: aql ham yomon yo'lga kirishi mumkin, agar u Ishqning pok kuchi bilan uyg'un bo'lmasa.

Xulosa.

“Husnu Dil” dostonining bosh g‘oyasi: insonning komillikka erishishi – aql, ishq, sabr, farosat, vafodorlik kabi fazilatlarning birligida mujassam bo‘ladi.

Shoirning fikricha, bu fazilatlar uyg‘unlashsa, “Gulshani Husn – jamiyat obodon bo‘ladi”, aks holda esa zulmat kuchlari ustun kelib, xaroblik yuz beradi.

Muhammadniyoz Nishotiy “Husnu Dil” dostoni orqali jamiyatning ma’naviy hayotiga oid chuqur falsafiy qarashlarini ifodalaydi. Doston ramziy obrazlar orqali ezgulik va yovuzlik kurashini yoritadi hamda insonni ma’naviy yuksalishga chorlaydi. Asardagi timsollar tizimi o‘zbek mumtoz adabiyotida alohida o‘rin tutadi va ma’rifiy g‘oyalarni targ‘ib etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.M.Nishotiy “Husn va Dil” Toshkent 1967.
- 2.V.A.Abdullaev “O‘zbek adabiyoti tarixi” Toshkent: “O‘qituvchi” 1967.
- 3.O.Abdurahmonova “Nishotiy munozaralarining matniy tahlili” Toshkent 2022.